

INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA KORXONANING IQTISODIY SALOHIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH**Samatov Azizjon Abdulaxatovich**

Toshkent Menejment va Iqtisodiyot Instituti PhD, dotsenti.

ORCID: 0009-0008-1391-0720 aziz_samatov@gmail.com**Kushbakov Baxrom Almatovich**

Toshkent Menejment va Iqtisodiyot Instituti magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19587630>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Innovatsion rivojlanish sharoitida korxonaning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish haqida soʻz yuritiladi. Maqolada innovatsion rivojlanish fikr va mulohazalar berib oʻtilgan. maqola soʻnggida xulosa va adabiyotlar keltirilgan.

Kalit soʻzlar: Innovatsion rivojlanishda korxonaning iqtisodiy salohiyat koʻrsatkichlari, Innovatsion fikrlar, iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish.

Abstract. This article discusses the effective use of the economic potential of an enterprise in the context of innovative development. The article presents ideas and comments on innovative development. At the end of the article, a conclusion and literature are presented.

Keywords: Indicators of the economic potential of an enterprise in innovative development, Innovative ideas, effective use of economic potential.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida korxonalarining innovatsion faoliyatini yanada kuchaytirishni va innovatsion menejment funksiyalaridan yanada samarali foydalanishni talab qiladi. Bu esa oʻz navbatida korxonaning innovatsion strategiyasini ishlab chiqishni talab qiladi. Korxonaning innovatsion strategiyasini ishlab chiqish va tadbqiq etish jarayoni oʻzida bajarilishi lozim boʻlgan loyihalarning barchasini birlashgan va tizimlashtirilgan, tegishli dastur bilan taʼminlangan boʻlsa samarali hisoblanadi. Shuning uchun ushbu strategik dasturlarning shakllanishi va bajarilishida qoʻllanuvchi eng muhim va asosiy usullar boʻlib prognozlashtirish va analitik usullar hisoblanadi. Bu usullar shuningdek, alternativ loyihalarni yoki muayyan bir loyihaning variantlarini tanlab olish zarurati tugʻilganda, alohida innovatsion loyihalarni tayyorlash jarayonida qoʻllanishi mumkin.

Oʻzbekiston qisqa davrda iqtisodiyotni bozor munosabatlari asosida oʻzining modeliga mos holda rivojlantirish maqsadida tajriba toʻplab, respublika iqtisodiyotida katta ishlarni amalga oshirdi, jumladan, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish, oʻzining milliy valyutasi - soʻmni joriy qilinishi, moliya va kredit, infratuzilma tizimlarida boshqarish idoralarini qayta qurish, tashqi iqtisodiy faoliyatni kuchaytirish va hokozolar hisobiga bozor munosabatlari yangi mazmun kasb etmoqda. Bu esa oʻz navbatida, jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi taʼsirini yumshatishda menejment va undan foydalanishning obektiv zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Menejmentning iqtisodiyotimizga kirib kelishi munosabati bilan chet el tajribalaridan keng foydalangan holda uni yanada takomillashtirish va mukammallashtirish masalalari marketologlar oldiga qoʻyilgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Buning sababi shundaki, bozor iqtisodiyoti ichki va tashqi savdo sharoitining muttasil oʻzgarib borishini, bozor munosabatlariga oʻtishning shart-sharoitlarini, uning oʻziga xos xususiyatlarini atroflicha oʻrganishni taqozo etadi. Bozor iqtisodiyotiga oʻtish boshqarish tizimining barcha jabhalarini chuqur, tarkibiy jihatdan qayta isloh qilishni va bunday islohotlar iqtisodiyotning barcha sohalarini: tarmoqlar, korporatsiyalar, birlashmalar va ularning asosi boʻlgan korxonalar faoliyatini menejment nuqtai nazaridan boshqarish tamoyillari asosida qamrab olishini,

shuningdek, mamlakatimiz milliy iqtisodiyotini boshqarishning ma'muriy bo'yruqbozlik usullaridan xoli holda iqtisodiy manfaatdorlikka asoslangan usuliga o'tilishini, hamda menejmentdan keng va har tomonlama foydalanishni talab qilmoqda.

Jahon tajribasiga ko'ra, yangiliklarni ishlab chiqish va joriy etish nafaqat korxonaning raqobatbardoshligini oshirish yo'li, balki mamlakatning iqtisodiy rivojlantirish uchun muhim rag'bat hamdir. Tashkilotlarning innovatsiyali rivojlanish strategiyasini shakllantirish masalalariga bag'ishlangan iqtisodiy adabiyotlardagi ilmiy konsepsiyalar umumlashmasi ular raqobatbardoshligining sezilarli ravishda o'sishga olib kelishini ko'rsatmoqda, biroq bu yerda yangiliklarga qarshiliklarning ham yuzaga kelishini inkor etib bo'lmaydi[19].

Shunga bog'liq holda, tashkilotni ilmiy-texnologik yangilashni amalga oshirishga majbur etuvchi sabablar, yo'naltiruvchi motivlarni aniqlab olmay turib, innovatsion faollikka va sanoat korxonalarining novatorlik faoliyati jadalligiga ta'sir ko'rsatib bo'lmaydi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish - bu xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning zrklinligi va iqtisodiy mustaqilligini oshirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo'lidagi mavjud to'siqlarni bartaraf etish jarayonlari orqali ta'minlanadi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin sog'lom raqobat muhiti yaratish bozor munosabatlarini shakllantirishning asosiy, muhim shartlaridan ekanligi belgilab qo'yilgan. Tovar bozorlarida sog'lom raqobat muhitining mavjudligi ishlab chiqaruvchilarni xo'jalik yuritishning samaraliroq usullari va yangi texnologiyalarni joriy etishga, tovarlarning sifatini hamda xizmat ko'rsatish darajalarini doimiy ravishda oshirib borish yo'llarini izlashga majbur qiladi, bu esa o'z navbatida nafaqat alohida olingan korxonaning, balki butun mamlakat iqtisodiyotining moliyaviy barqarorligini oshiradi. Shu bilan birgalikda raqobat - iste'molchilarga sifatli tovarlarni nisbatan arzon narxlarda sotib olish imkonini yaratib, ularning sotib olish qobiliyatini yanada oshiradi.

Iste'molchilarning sotib olish qobiliyati qanchalik yuqori bo'lsa, sog'lom, jamiyat farovonligi ham shuncha yuqori bo'ladi. Shunday qilib, sog'lom raqobat muhitini shakllantirish iqtisodiyotni erkinlashtirishning muhim shartlaridan bo'lib hisoblanadi.

O'zbekistonda iqtisodiyotni isloh qilishning o'ziga xos tamoyillari, mamlakatdagi vaziyat va aholining turmush darajasi hisobga olinib, narxlarni asta-sekinlik bilan va bosqichma-bosqich erkinlashtirish yo'li tanlab olindi. Shu yo'l bilan narxlarni erkinlashtirishning dastlabki bosqichida (1992 yilning boshida) keng doiradagi ishlab chiqarish texnika vositasi bo'lgan mahsulotlar, ayrim turdagi xalq iste'moli mollari, bajarilgan ishlar va xizmatlarning erkin narxlari va tariflariga o'tildi. Aholini himoyalash maqsadida cheklangan doiradagi oziq-ovqat va sanoat tovarlari narxlarining chegarasi belgilab qo'yildi, ayrim turdagi xizmatlarning eng yuqori tariflari joriy qilindi.

Narxlarni erkinlashtirishning keyingi bosqichida (1993 yil) kelishilgan ulgurji narxlarni davlat tomonidan tartibga solish to'xtatildi. Qat'iy belgilangan va davlat tomonidan tartibga solib turiladigan narxlarda sotiladigan tovarlar va ko'rsatiladigan xizmatlarning soni ancha qisqardi.

Narxlarni erkinlashtirishning navbatdagi bosqichida (1994 yil, oktyabr, noyabr) xalq iste'mol mollari asosiy turlarining narxlari erkin qo'yib yuborildi, transport va kommunal xizmatlarning tariflari oshirildi. Shunday qilib, respublikada iqtisodiyotni isloh qilishning birinchi bosqichi narxlarni bosqichma-bosqich (uch bosqichda) to'liq erkinlashtirish bilan tugadi.

Narxlarni erkinlashtirish aholini ishonchli iqtisodiy va ijtimoiy himoyalash tadbirlari bilan birga olib borildi. Davlat tomonidan turli kompensatsiyalar maqsadidagi jamg'armalar tuzildi, ish haqi, pensiya va stipendiyalarning eng kam miqdori muntazam suratda oshirib borildi,

bolalar uchun nafaqalar joriy etildi. Aholining muhtoj qismiga yordam ko'rsatildi, imtiyozli soliq stavkalari joriy etildi.

Hozirgi paytda O'zbekiston iqtisodiyotini erkinlashtirishning ahamiyatini shunday ifodalash mumkinki, bu jarayonsiz raqobatni rivojlantirish bo'yicha barcha hatti-harakatlar ko'zlangan natijaga erishish imkonini bermaydi.

Respublika bozorlarida raqobat holatiga tashqi iqtisodiy faoliyat katta ta'sir ko'rsatadi.

Bu sohani erkinlashtirish bo'yicha ma'lum chora-tadbirlar amalga oshirilganligiga qaramay, hali ham ahamiyatli darajada tartibga solingan holatda qolmoqda. Eksportni kvotalash tashqi bozorlarga chiqishdagi korxonalar o'rtasidagi raqobatni cheklab qo'ymoqda. Qator pozitsiyalar bo'yicha import poshlina(boj)larining yuqori stavkalari o'rnatilishi munosabati bilan ko'plab to'siqlar saqlanib qolmoqda. Bu esa mazkur pozitsiyalar bo'yicha importning bo'lmasligiga olib kelmoqda, buning oqibatida esa raqobat muhitining shakllanishi sekinlashmoqda.

Zamonaviy bozorda muvaffaqiyatli amal qilishning muhim shart- sharoitlaridan biri - valyuta resurslaridan foydalanish imkoniyatidir.

Hozirgi vaqtda konvertatsiya bo'yicha ustuvorlik eksportga yo'naltirilgan hamda importning o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishda band bo'lgan nisbatan yirik korxonalariga, alohida qo'shma korxonalariga berilmoqdaki, bu holat ularning ustunligini ahamiyatli darajada oshirmoqda. Ko'plab yangi tashkil etilgan, ayniqsa o'rta va kichik korxonalar konvertatsiya qilish, demak, arzon import xom ashyosidan foydalanish imkoniyatiga ega emaslar. Bu esa ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotning narxini oshirib, Ayni paytda raqobatbardoshligini pasaytiradi. Buning ustiga, respublikada zarur xom ashyoning yo'qligi sharoitida ko'plab xo'jalik sub'ektlarining valyuta resurslaridan foydalanishining qiyinligi ularni o'z ishlab chiqarish faoliyatini qisqartirishi yoki bozordan chiqib ketishiga majbur qiladi. Shunga ko'ra, valyuta bozorining erkinlashtirilishi yirik korxonalar yakka hukmronligiga to'sqinlik qilish va raqobatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

- Innovatsion rivojlanish sharoitida sanoat korxonalarida eksportbob mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish maqsadida, ularning ish faoliyatiga ruxsatnoma berish, sansolarlik holatlarini kuzatish mumkin. Shuningdek, mansabdor shaxslarning tadbirkorlar ishiga behuda aralashish kabi jarayonlarga keskin barham berish chora-tadbirlarini ishlab chiqish zarur.

- Innovatsion rivojlanish sharoitida sanoat korxonalarida eksportbob mahsulotlarni ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligi qonuni amal qiladi va bu qonun birinchi navbatda, ishlab chiqarishdan manfaatdorlik va daromadlarni taqsimlash qonuni bilan bog'liqdir.

- Kelgusida Innovatsion rivojlanish sharoitida sanoat korxonalarida sub'ektlarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni raqobatbardoshligini ta'minlash va rivojlantirish mahsada ularni har tomanlama qo'llab-quvatlash uchun barcha moliyaviy manbalardan ajratiladigan kreditlar miqdorini birmuncha ko'paytirishni nazarda tutish lozim. Bu o'z navbatida, erkin iqtisodiy zonalar sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni xalqaro andozalar darajasida yo'lga qo'yish, barqaror iqtisodiy o'sishga erishish, iste'mol bozorini sifatli tovarlar va xizmatlar bilan to'ldirish, muhimi, yangi ish joylarini ochishda ularning hissasi yanada ko'proq va salmoqliroq bo'lishini ta'minlash imkonini beradi.

- Innovatsion rivojlanish sharoitida sanoat korxonalarini rivojlantirish va unga aloqador korxonalarini joylashtirishni belgilab beruvchi me'yoriy hujjatlar yana ham takomillashtirilishi zarur, tadbirkorlikni mamlakatlarning barcha viloyatlarida rivojlantirish uchun zarur shart - sharoitlarni barpo etish maqsadga muvofiq.

Bunday yondashuv mahalliy axolini ish bilan ta'minlabgina qolmasdan, balki respublikaning iqtisodiy taraqqiyotiga qo'shayotgan hissasini oshishiga ham olib keladi.

- Innovatsion rivojlanish sharoitida sanoat korxonalarini sub'ektlarining iqtisodiy faoliyatlari uchun yanada qulayliklar yaratib berish, uni rivojlantirishning hududiy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. // G. Xalq so'zi, 2022 yil, 29-yanvar.
2. Voronin S.A. Nalogooblojenie kak instrument stimulirovaniya innovatsiy. // «Obshchestvennie nauki v Uzbekistane», №1, 2021g., s.29-34.
3. <http://www.eoq.org>
4. <https://www.iso.org/obp/ui/#iso:std:iso:9001:ed-5:v1:ru>
5. Innovatsiya — dvijushaya sila kitayskogo obshchestva v sovremennuyu epoxu. //Ekonomist. № 4. 2021 g. S. 6.